

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
O‘simliklar karantini va himoyasi
agentligi bosh direktori

_____ **I.Ergashev**
2023-yil “___” - yanvar

O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini
va himoyasi agentligi yig‘ilishining
BAYONI

2023-yil “13” - yanvar

10-1-son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: **I.Ergashev** – O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktori.

Qatnashdilar: O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktorining o‘rinbosarlari, boshqarma va bo‘lim boshliqlari, tizim tashkilot rahbarlari.

K U N T A R T I B I:

1. O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktorining o‘rinbosarlari, boshqarma va bo‘lim boshliqlari, tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar rahbarlarining 2022-yil IV choragi hamda 2022-yil davomida erishilgan faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash yakunlari to‘g‘risida.

2. O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktorining o‘rinbosarlari, boshqarma va bo‘lim boshliqlari, tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar rahbarlarining 2023-yil uchun maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining 2023-yilga mo‘ljallangan ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida.

(Ergashev, Xamrayev, Kasimov, Sadinova, Nasimov, Arifxanova, Anarbayev, Sultanov, Zufarova, Yuldashov, Qosimov, Gapparov, Xashimov, Jurayev, Salixov, Nuritdinov, Raximov, Daminov, Djurayev, Anorbayev, Ollaberganov, Zokirov, Ergashev)

Kun tartibidagi **1-masala** bo‘yicha O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) bosh direktori tomonidan Agentlik bosh direktorining o‘rinbosarlari, boshqarma va bo‘lim boshliqlari, tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar rahbarlarining 2022-yil IV choragi hamda yil davomida erishilgan faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi “Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo‘jalik birlashmalari rahbarlari

o‘rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-5189-sonli hamda 2021-yil 24-avgustdagi “Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari o‘rinbosarlarining ularga yuklangan vazifalarni bajarishda shaxsiy mas’uliyatini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5230-sonli qarorlaridan kelib chiqqan holda baholanganligi qayd etildi.

Shu bilan birga, 2023-yil 4-yanvardagi “O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktori o‘rinbosarlarining 2022-yil IV choragi hamda 2022-yil davridagi faoliyati bo‘yicha baholash yakunlari va 2023-yilda faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarining (KPI) prognozini belgilash to‘g‘risida”gi Hay‘at yig‘ilishi qarori qabul qilinib, natijasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilganligi ma’lum qilindi.

Bosh direktor o‘rinbosarlari ko‘rsatkichlari o‘zlari bevosita mas’ul bo‘lgan boshqarma, bo‘lim, tizim tashkilotlari va hududiy boshqarmalar rahbarlarining faoliyati samadorligi maqsadli ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘langanligi bildirildi.

Agentlikning boshqarma, bo‘lim va tizim tashkilotlari hamda hududiy boshqarmalari rahbarlari faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash yuzasidan 2022-yil 29-sentabrdagi yig‘ilish bayoniga muvofiq Agentlik bosh direktori o‘rinbosarlari faoliyati samaradorligini to‘g‘ri va asosli baholash maqsadida tashkil etilgan ishchi guruh (D.Anarbayev – ishchi guruh rahbari o‘rinbosari)ning hisoboti o‘qib eshittirildi.

Agentlik bosh direktori va o‘rinbosarlari, barcha boshqarma, bo‘lim va tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar rahbarlarining faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlillar asosida har chorak yakuni bo‘yicha baholanib borilayotganligi hamda barcha choraklar yakuni bo‘yicha yillik ko‘rsatkichlar natijalari hisoblab chiqildi.

Faoliyatning samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish va baholash Agentlik bosh direktorining 2022-yil 15-iyuldagi 319-p-sonli buyrug‘i va ushbu buyruq bilan tasdiqlangan “O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining markaziy apparati boshqarmalari, bo‘limlari, hududiy bo‘linmalari hamda tizim tashkilotlari rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risida nizom” (keyingi o‘rinlarda – Nizom) asosida amalga oshirildi.

1. Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha 2022-yil IV choragi hamda 2022-yil davomida faoliyatning samaradorlik ko‘rsatkichlari batafsil o‘rganilgan holda baholash natijalari Agentlik bosh direktori hamda uning **3 nafar** o‘rinbosarlari, **33 ta** boshqarma, bo‘lim va tizim tashkilotlari rahbarlari, **14 ta** hududiy boshqarma boshliqlarini o‘z ichiga oldi.

2. Agentlik bosh direktori va o‘rinbosarlari kesimida faoliyat ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda Agentlik bosh direktori I.Ergashevga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunuvchi **12 ta** tarkibiy bo‘linmalar va **14 ta** hududiy boshqarmalar, Agentlik tizimidagi O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti, “Biosifat” respublika markazi, Respublika agrokimyoviy tahlil markazi ko‘rsatkichlari qamrab olingan bo‘lsa, Bosh direktor o‘rinbosari v.b. B.Xamrayev yo‘nalishida **7 ta** tarkibiy bo‘linmalari, Bosh

direktor o‘rinbosari v.b. N.Kasimov yo‘nalishida **7 ta** tarkibiy bo‘linmalari, Bosh direktor o‘rinbosari – vakant (iqtisod bo‘yicha) yo‘nalishida **4 ta** tarkibiy bo‘linmalari natijalari inobatga olindi.

3. Agentlik bosh direktori va o‘rinbosarlari, boshqarma, bo‘lim, tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar boshliqlarining faoliyati samaradorlik va maqsadli ko‘rsatkichlariga erishilganligi tahlil qilinganda, quyidagicha baholash mezonlarini keltirib chiqardi:

3.1. Markaziy apparatning boshqarma, bo‘lim va tizim tashkilotlari rahbarlari bo‘yicha o‘rganilib, Nizom talablari asosida **21 ta** boshqarma, bo‘lim va tizim tashkilotlari rahbarlarining maqsadli vazifalarga erishish bo‘yicha 2022-yil IV choragi hamda 2022-yil davomida samaradorlik ko‘rsatkichlari **“alo”**;

Nizom talablariga ko‘ra, Eksportga ko‘maklashish bo‘limi (**yillik 96 birlik, IV chorak 97 birlik**) hamda Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi (97/95), shuningdek, Ishlar boshqarmasi (96/91) **“yaxshi”**;

Innovatsion faoliyat va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi 2022-yil IV choragi hamda 2022-yil davomida samaradorlik ko‘rsatkichi (62/67) **“qoniqarsiz”** deb qayd etildi.

Ichki audit bo‘limi esa 2022-yil IV choragida (83 birlik) **“qoniqarli”** natija ko‘rsatgan bo‘lsada, yillik ko‘rsatkich **“qoniqarsiz”** (54 birlik) baholandi.

Shuningdek, 2022-yil IV choragi hamda 2022-yil davomida **“Biosifat”** respublika markazi (yillik **“qoniqarli”**, IV chorak **“alo”**), Prognozlashtirish va monitoring bo‘limi (**“qoniqarli”/“alo”**), Buxgalteriya boshqarmasi (**“qoniqarli”/“alo”**), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi (**“yaxshi”/“alo”**), Respublika agrokimyoviy tahlil markazi (**“yaxshi”/“alo”**), Tashqi karantin boshqarmasi (**“alo”/“yaxshi”**), Mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini sotish faoliyatini lisenziyalash va muvofiqlashtirish bo‘limi (**“alo”/“qoniqarli”**) turli natijalarga erishishgan.

3.2. Faoliyatning samaradorlik ko‘rsatkichlari hududlar kesimidagi tahlili Nizom talablariga ko‘ra ko‘rib chiqilganda, Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi 2022-yil davomida (99 birlik) 2022-yil IV choragida (96 birlik) **“yaxshi”**, Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi 2022-yil davomida **“alo”** (119 birlik) 2022-yil IV choragida (97 birlik) **“yaxshi”** natija ko‘rsatgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi (yillik 152 birlik, IV chorak 175 birlik), Andijon (125/153), Samarqand (132/180), Sirdaryo (124/175), Namangan (159/235) va Farg‘ona (233/262) viloyatlari samaradorlik ko‘rsatkichlarini **2022-yil IV choragida sun‘iy pasaytirib ko‘rsatganlari** sababli 2022-yil hamda uning IV choragi davomida maqsadli ko‘rsatkichlari yuqori natija qayd etilishiga sabab bo‘lgan.

Kun tartibidagi **2-masala** bo‘yicha Agentlik bosh direktori tomonidan o‘rinbosarlar, boshqarma va bo‘lim boshliqlari, tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar rahbarlarining 2023-yil uchun maqsadli vazifalarga erishishni

baholashning asosiy ko'rsatkichlariga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligini ma'lum qildi.

Ushbu masala yuzasidan 2022-yil 29-sentabrdagi yig'ilish bayoniga muvofiq Agentlik bosh direktori o'rinbosarlari faoliyati samaradorligini to'g'ri va asosli baholash maqsadida tashkil etilgan ishchi guruh a'zosi A.Anorbayev yig'ilish a'zolariga ishchi guruhning o'rganishlari natijalarini ma'lum qildi.

Birinchidan, 2022-yil davomida faoliyatning samaradorlik ko'rsatkichlari batafsil o'rganilib, tahlil qilingan holda 2023-yil uchun maqsadli vazifalar va ishlarni samarali tashkil etish maqsadida bir qator o'zgartirishlar amalga oshirildi.

Xususan, o'tgan yil davomida **14 ta** hududiy boshqarma boshliqlarining **32 ta** asosiy mezon va yo'nalishdagi faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqib, **24 ta** maqsadli ko'rsatkichlarga o'zgartirilib, batamom yangilandi.

Agentlikning boshqarma va bo'lim boshliqlari, tizim tashkilotlari rahbarlari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlariga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ularga kiritilgan o'zgartirishlar hududiy boshqarma boshliqlarining baholash mezonlari bilan o'zaro bog'langan.

Birgina, Biologik himoya va o'simliklar klinikalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'ining **16 ta** asosiy mezoni **10** taga tushirildi hamda asosiy maqsadli ko'rsatkichlar inobatga olindi.

Ikkinchidan, 2023-yil uchun maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy ko'rsatkichlari bevosita rahbar o'rinbosarlarining ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lganligi sababli asosiy mezonlarni belgilash o'rinbosarlar natijalarga tayanilgan holda amalga oshirildi.

*Misol uchun: respublika bo'yicha **4,2 mln. gektar** maydonda o'simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurashish tadbirlarini tashkil etish hamda ularni muvofiqlashtirish, **9,1 mln metr³** karantin ostidagi mahsulotlar va omborxonalarda zararsizlantirish (fumigatsiya) ishlarini amalga oshirish, **4 turdagi** sohaga oid davlat xizmatlari va jarayonlarini raqamlashtirish tadbirlari shular jumlasidan.*

Shuningdek, ba'zi bir erishiladigan maqsadli ko'rsatkichlar natijalariga erishish o'zaro hamkorlik natijasida ta'minlanishi bois, boshqarma va bo'lim boshliqlari, tizim tashkilotlari hamda hududiy boshqarma rahbarlari kelishilgan holda ishlarni olib borishi lozim.

Uchinchidan, 2023-yil uchun maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy ko'rsatkichlari **davlat siyosati, favqulodda vaziyatlar, fors-major** holatlari sababli kamayishi yoki ko'payish xarakteriga ega hisoblanadi.

Bunday holatlar yuzaga kelganda, tegishlicha ushbu yo'nalish bo'yicha rahbar o'rinbosarining taklifi yoki bildirgisiga ko'ra **faqat kollegial organ qarori bilan** o'zgartirish va/yoki qo'shimcha kiritish mumkin.

Kun tartibidagi **3-masala** bo'yicha Yig'ilish raisi Agentlikning 2023-yilga mo'ljallangan **ish rejasi** ishlab chiqilganini ma'lum qildi.

Mazkur ish reja bo'yicha Yuridik bo'lim boshlig'i D.Zufarova yig'ilish ishtirokchilariga quyidagicha ma'lumot berdi.

Agentlikning 2023-yilga mo'ljallangan ish rejasida oldingi yillardagidan **bir qator farqli jihatlari mavjud.**

Avvalo, mazkur ish reja **17 ta** banddan iborat bo'lib, yo'nalishlar kesimida vazifalar, amalga oshirish mexanizmi, muddati hamda mas'ullar ko'rsatilgan.

Ish reja Agentlikka yuklatilgan vazifalar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirildi.

Kun tartibidagi masalalar muhokamasi yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflardan kelib chiqib, Yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan hisobotlar ma'lumot, asos va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Agentlik bosh direktorining o'rinbosarlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari, tizim tashkilotlari, rahbarlarining **2022-yil IV choragi** hamda **2022-yil davomida** erishilgan faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha baholash yakunlari **1-ilovaga** muvofiq, hududiy boshqarmalar boshliqlarining 2022-yil IV choragi hamda 2022-yil davomida erishilgan faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha baholash yakunlari **2-ilovaga** muvofiq, Agentlik bosh direktorining o'rinbosarlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari, tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar rahbarlarining 2023-yil uchun maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy ko'rsatkichlari **3-ilovaga** muvofiq, Agentlikning 2023-yilga mo'ljallangan ish rejasi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Barcha boshqarma, bo'lim, tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar rahbarlari:

faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlari va maqsadli vazifalarga erishishlari bo'yicha belgilangan rejalarni so'zsiz, to'liq ta'minlash choralarini ko'rsin;

Agentlikning 2023-yilga mo'ljallangan ish rejasida belgilab berilgan vazifalarni o'z vaqtida hamda sifatli bajarsin hamda ko'zlangan **natijalarga erishish uchun barcha imkoniyatlaridan** foydalansin;

samaradorlik ko'rsatkichlari va maqsadli vazifalarga erishishlarida yuqori natijani ko'zlab **o'z rejalarni sun'iy pasaytirish holatlari aniqlangan taqdirda "hayfsan"** intizomiy jazo chorasi ko'rilishi to'g'risida **qattiq ogohlantirilsin;**

sohani takomillashtirish uchun o'tkaziladigan yig'ilish, uchrashuv va selektorlarda, shuningdek, har hafta dushanba kuni ijro intizomiga bag'ishlab birinchi rahbar huzurida o'tkaziladigan yig'ilishlarda faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish uchun **to'sqinlik qilayotgan omillar** va ularni **bartaraf etish bo'yicha takliflar** kiritib borsin;

ushbu takliflar Agentlik bosh direktorining o'rinbosarlari faoliyati samaradorligini to'g'ri va asosli baholash maqsadida tashkil etilgan **ishchi guruh a'zolari** tomonidan o'rganib chiqilib, nazoratga olinsin.

4. Yig'ilishda bildirilgan takliflar to'liq qo'llab-quvvatlanib, 2023-yil uchun maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy ko'rsatkichlari davlat siyosati, favqulodda vaziyatlar, fors-major holatlari sababli kamayishi yoki ko'payish yuzasidan **o'zgartirish** va/yoki **qo'shimcha** kiritish **vakolati kollegial organga berilsin**.

Bunda, tegishli uchbu yo'nalish bo'yicha rahbar o'rinbosarining taklifi yoki bildirgisi asosida amalga oshirilsin.

5. **O'simliklar karantini va himoyasi tizimi rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini muvofiqlashtirish bo'limi** (J.Salixov), **Kadrlar bo'limi** (A.Daminov), **Yuridik bo'lim** (D.Zufarova) birgalikda **bir oy muddatda** Nizom talablaridan kelib chiqqan holda samaradorlik ko'rsatkichlari va maqsadli vazifalar erishish natijalari yuzasidan **"rag'batlantirish"** yoki **"intizomiy jazo qo'llash"**ning tartibini ishlab chiqib, Agentlik bosh direktoriga tasdiqlash uchun kiritilsin.

6. **Kadrlar bo'limi** (Daminov) Agentlikning 2022-yil 24-oktabrdagi 10-41-sonli Hay'at qarori 7-bandli ijrosini ta'minlash maqsadida markaziy apparatning boshqarma, bo'lim va tizim tashkilotlari rahbarlari hamda hududiy boshqarmalar boshliqlarining 2022-yil IV choragi hamda 2022-yil davomida erishilgan faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarining baholash yakunlari (KPI) bo'yicha erishgan natijalariga qarab ularga **rag'batlantirish** yoki **intizomiy jazo chorasini qo'llash yuzasidan** Agentlik bosh direktoriga taklif kiritilsin.

7. **Yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi** (D.Anarbayev) Agentlik bosh direktorining o'rinbosarlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari, tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar rahbarlarining **2023-yil uchun maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy ko'rsatkichlarini** hamda Agentligining 2023-yilga mo'ljallangan **ish rejasidagi** vazifalar ijrosi monitoringini yuritsin, shuningdek, natijalar yuzasidan Agentlik bosh direktoriga axborot kiritib borsin.

8. **Matbuot kotibi** – Axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchi S.Sadinova **bir hafta muddatda** Agentlikning barcha boshqarma, bo'lim va tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalari rahbarlarining 2022-yil IV choragi hamda 2022-yil davomida erishilgan faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha baholash yakunlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda Agentlik rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali jamoatchilikka etkazilishini ta'minlasin.

9. Mazkur Yig'ilish qarori ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimmasida qoldiraman.